



№8(1)  
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 114 sahifa,  
3-avgust, 2026-yil.

## **BOSH MUHARRIR:**

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

## **BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

## **TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI**

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik  
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik  
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor  
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor  
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)  
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)  
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)  
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)  
Woosyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)  
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)  
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent  
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor  
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor  
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)  
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent  
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti  
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor  
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)  
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent  
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori  
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari  
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Muassis:** "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

**Hamkorlarimiz:** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

#### EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

#### DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

#### EDITORIAL BOARD MEMBERS:

**Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician**

**Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician**

**Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor**

**Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor**

**Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)**

**Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)**

**Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)**

**Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)**

**Woosyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)**

**Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)**

**Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor**

**Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor**

**Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor**

**Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)**

**Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor**

**Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor**

**Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service**

**Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor**

**Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)**

**Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor**

**Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics**

**Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor**

**Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region**

**Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun**

**Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences**

**Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor**

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”  
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot  
va ommaviy kommunikatsiyalar  
agentligi tomonidan **№C-5669363**  
reyestr raqami tartibi bo'yicha  
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**



# MUNDARIJA

|                                                                                                                                                  |    |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|
| Sun'iy intellekt muhitida o'sib kelayotgan Alfa avlodining shaxsiy va psixik rivojlanishi .....                                                  | 10 |
| <a href="#">Jo'rayeva Dिल्фуза Abdug'aniyevna</a>                                                                                                |    |
| Teng yonli uchburchak xossalari va kesmaning o'rta perpendikulyari xossalardan foydalangan holda masalalar yechish .....                         | 13 |
| <a href="#">Namozov Diyorbek Baxtiyor o'g'li</a>                                                                                                 |    |
| Xiva xonligining siyosiy boshqaruv modeli: Buxoro va Qo'qon xonliklari bilan qiyosiy tahlili.....                                                | 17 |
| <a href="#">Mutallibjonov Boburmizro</a>                                                                                                         |    |
| Boshlang'ich sinfda informatika fanini o'qitish metodikasi .....                                                                                 | 26 |
| <a href="#">Nosirova Feruza Baxadir qizi</a>                                                                                                     |    |
| Funksional savodxonlik asosida bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini professional rivojlantirishning strukturaviy-faoliyatli modeli..... | 30 |
| <a href="#">Gafurova Mahfuza Abbosovna</a>                                                                                                       |    |
| Mutafakkirlar asarlarida bolalar faolligini shakllantirishda o'yinlardan foydalanishning yoritilishi .....                                       | 35 |
| <a href="#">Ravshanova Uldona Narziboyevna</a>                                                                                                   |    |
| Ijtimoiy-madaniy qadriyatlar variatsiyasi sharoitida talabalarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish mazmuni .....                           | 39 |
| <a href="#">Voriso va Barnoxon Olimjon qizi</a>                                                                                                  |    |
| Huquqiy ta'lim va huquqiy tarbiya integratsiyasi orqali yoshlar orasida huquqbuzarliklarning oldini olish ....                                   | 43 |
| <a href="#">Habibjonov Izzatbek Dilshodjon o'g'li</a>                                                                                            |    |
| Bo'lajak o'qituvchilarning tanqidiy va refleksiv tafakkurini rivojlantirishda antirfragil yondashuvning o'rni.....                               | 51 |
| <a href="#">G'ulomjonova Ziyodaxon A'zamjon qizi</a>                                                                                             |    |
| Badiy adabiyotning yoshlar tarbiyasidagi didaktik imkoniyatlari .....                                                                            | 57 |
| <a href="#">Irisboyeva Xotiraxon Utbasarovna</a>                                                                                                 |    |
| Talabalarining o'quv amaliyoti jarayonida kasbiy mobilligini rivojlantirishda dual ta'limga asoslangan metodikani takomillashtirish .....        | 61 |
| <a href="#">G'ofurov To'liqinjon</a>                                                                                                             |    |
| Didactic Opportunities of Content and Language Integrated Learning (CLIL) Technology in English Language Teaching .....                          | 67 |
| <a href="#">Ismailova Aziza Dilshodovna</a>                                                                                                      |    |
| Фольклорные источники в историко-географическом изучении памятников Устюрта.....                                                                 | 72 |
| <a href="#">Канаатов Есимкан</a>                                                                                                                 |    |
| Xorijiy davlatlar tajribasida o'zgarishlarni boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirish amaliyoti.....                                             | 76 |
| <a href="#">Abdullayev Amirulla Xazratovich</a>                                                                                                  |    |
| Algoritmik faollikni rivojlantirishning zamonaviy metodik yondashuvi .....                                                                       | 81 |
| <a href="#">Pardayeva Kamola Sultonovna</a>                                                                                                      |    |
| Sun'iy intellekt va startap ekotizimi asosida talabalarining tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish .....                                    | 86 |
| <a href="#">Imomaliyev Quvvat Choriyevich</a>                                                                                                    |    |
| Maktab ta'limida o'qitish sifatini baholashning ko'p tarmoqli raqamli-diaagnostik tizimini joriy etish va boshqarish .....                       | 91 |
| <a href="#">Nurmetov Tursunbek Kenjayevich</a>                                                                                                   |    |
| Event ta'lim texnologiyasi vositasida talabalarining o'qish samaradorligini oshirish .....                                                       | 96 |
| <a href="#">Latipova Ma'rifat Salohiddin qizi, Bo'tayeva Saodat Xudoyor qizi</a>                                                                 |    |
| Texnologik ta'lim yo'nalishi talabalarining malakaviy va pedagogik amaliyotlari uzviyligini ta'minlashning metodik modeli .....                  | 99 |
| <a href="#">Mardonov Maqsudbek Maxmudovich</a>                                                                                                   |    |



|                                                                                                                                      |     |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| Nogironligi bo'lgan bolalarni tarbiyalayotgan oilalarga ijtimoiy-psixologik yordam ko'rsatishning nazariy-metodologik asoslari ..... | 103 |
| <a href="#">Umarova Umidaxon Ibaydullayevna</a>                                                                                      |     |
| Chizmachilik darslarida animatsiyali modellarni qo'llashning pedagogik asoslari .....                                                | 108 |
| <a href="#">Xo'janiyozov Shokir Rustamovich</a>                                                                                      |     |



# NOGIRONLIGI BO'LGAN BOLALARNI TARBIYALAYOTGAN OILALARGA IJTIMOYIY- PSIXOLOGIK YORDAM KO'RSATISHNING NAZARIY- METODOLOGIK ASOSLARI



**Umarova Umidaxon Ibaydullayevna**  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi  
Andijon viloyati Paxtaobod tumani  
"inson" ijtimoiy xizmatlar markazi ijtimoiy xodimi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada nogironligi bo'lgan bolalarni tarbiyalayotgan oilalarga ijtimoiy-psixologik yordam ko'rsatishning nazariy-metodologik asoslari tahlil qilingan. Biopsixosozial yondashuv, L. S. Vygotskiyning birlamchi va ikkilamchi nuqson nazariyasi hamda U. Bronfenbrennerning ekologik tizimlar nazariyasi asosida nogironligi bo'lgan bolalarning psixologik rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar yoritilgan. Shuningdek, oilaning bolaning psixik rivojlanishidagi o'rni, ota-onalarga kompleks psixologik yordam ko'rsatishning ahamiyati, oilaviy tarbiya uslublari hamda korreksion-pedagogik yondashuvlarning ilmiy-amaliy jihatlari tahlil etilgan. Tadqiqot natijalari nogironligi bo'lgan bolalarni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirishda oilaga yo'naltirilgan yondashuvning muhimligini asoslaydi.

**Kalit so'zlar:** nogironligi bo'lgan bolalar, ijtimoiy-psixologik yordam, biopsixosozial yondashuv, oila, korreksion pedagogika, maxsus psixologiya, birlamchi va ikkilamchi nuqson, psixologik rivojlanish, ekologik tizimlar nazariyasi, oilaga yo'naltirilgan yondashuv.

**Abstract:** This article examines the theoretical and methodological foundations of providing socio-psychological support to families raising children with disabilities. Based on the biopsychosocial approach, L. S. Vygotsky's theory of primary and secondary disabilities, and U. Bronfenbrenner's ecological systems theory, the study analyzes the factors influencing the psychological development of children with disabilities. Particular attention is paid to the role of the family in a child's psychological development, the importance of comprehensive psychological support for parents, family parenting styles, and correctional-pedagogical approaches. The findings emphasize that a family-centered approach is a key prerequisite for improving the support system for children with disabilities and their families.

**Key words:** children with disabilities, socio-psychological support, biopsychosocial approach, family, special education, special psychology, primary and secondary disability, psychological development, ecological systems theory, family-centered approach.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются теоретико-методологические основы оказания социально-психологической помощи семьям, воспитывающим детей с инвалидностью. На основе биопсихосоциального подхода, теории первичного и вторичного дефекта Л. С. Выготского, а также экологической теории систем У. Бронфенбреннера раскрываются факторы, влияющие на психологическое развитие детей с инвалидностью. Особое внимание уделяется роли семьи в психическом развитии ребенка, значению комплексной психологической поддержки родителей, особенностям семейного воспитания и коррекционно-педагогическим подходам. Полученные результаты подтверждают, что семейно-ориентированный подход является одним из ключевых условий совершенствования системы поддержки детей с инвалидностью и их семей.

**Ключевые слова:** дети с инвалидностью, социально-психологическая помощь, биопсихосоциальный подход, семья, коррекционная педагогика, специальная психология, первичный и вторичный дефект, психологическое развитие, экологическая теория систем, семейно-ориентированный подход.

## KIRISH

Zamonaviy maxsus psixologiya va korreksion pedagogika fanida rivojlanishida turli xil cheklavlarga ega bo'lgan bolalarning ruhiy dunyosini chuqur o'rganish alohida ahamiyat kasb etadi. Bunday bolalarning psixik faoliyati sog'lom rivojlanayotgan tengdoshlarinikidan tubdan farq qilmasa-da, ularning shakllanish jarayoni



o'ziga xos qonuniyatlarga bo'ysunadi. Ushbu qonuniyatlarni ilmiy asosda tushunish nafaqat nazariy, balki amaliy – ta'lim, tarbiya va rehabilitatsiya ishlarini to'g'ri tashkil etish nuqtai nazaridan ham muhim ahamiyatga ega. So'nggi yillarda psixologiya fanida nogironlik muammosini konseptual talqin etishda tub paradigmatic siljish kuzatilmoqda. An'anaviy tibbiy model doirasida nogironlik individning organik yoki funksional nuqsoni, ya'ni patologik hodisa sifatida qaralgan bo'lsa, so'nggi o'n yilliklarda ushbu yondashuv o'zining metodologik cheklolarini namoyon qildi.

Nogironlikni faqat biologik substrat darajasida tushuntirish shaxsning ijtimoiy-psixologik rivojlanish dinamikasini, uning atrof-muhit bilan o'zaro ta'sir jarayonlarini hamda kompensatsion imkoniyatlarini e'tibordan chetda qoldiradi. Bu borada biopsixosozial model nisbatan yaxlit va integrativ nazariy asos sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu model doirasida nogironlik biologik, psixologik va ijtimoiy determinantlarning o'zaro bog'liq tizimi sifatida talqin etiladi. Bunda har bir komponent boshqalariga ta'sir ko'rsatadi va ulardan ta'sirlanadi. Demak, nogironligi bo'lgan bolalarning psixik rivojlanishini tadqiq etishda ushbu uch omilning integrativ tahlili metodologik zaruratga aylanmoqda.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbekiston Respublikasida nogironligi bo'lgan bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularning jamiyatga integratsiyalashuvini ta'minlash hamda ushbu bolalarni tarbiyalayotgan oilalarga kompleks ijtimoiy-psixologik yordam ko'rsatish tizimi dolzarb ilmiy-amaliy masalalardan biridir. Ushbu yo'nalishda olib borilgan ilmiy-nazariy va amaliy tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, mazkur muammo bir qancha fanlar – ijtimoiy ish, psixologiya, korreksion pedagogika va sotsiologiya tutashuvida kompleks o'rganilishini talab etadi. Oilaga yo'naltirilgan yondashuv (Family-Centered Approach) zamonaviy ijtimoiy-psixologik yordam ko'rsatish tizimining tayanch ustunlaridan biri hisoblanadi.

Tadqiqotchilar (G. M. Andreyeva, A. I. Zaxarov, V. V. Tkacheva) o'z ishlarida ta'kidlashicha, imkoniyati cheklangan bolaning dunyoga kelishi yoki unda nogironlikning aniqlanishi oila mikromuhitida kuchli psixologik inqiroz va distress holatini yuzaga keltiradi <sup>[1]</sup>. Mazkur psixotraumatik vaziyat ota-onalarda emotsional sohaning deformatsiyalanishiga, xavotirlanish darajasining ortishiga hamda ijtimoiy izolyatsiyaga olib keladi <sup>[2]</sup>. Shu sababli ilmiy adabiyotlarda asosiy e'tibor faqatgina bolaga emas, balki butun oila tizimiga (Family Systems Theory) yordam ko'rsatish zarurligiga qaratiladi <sup>[3]</sup>.

Ijtimoiy-psixologik ko'mak berishning metodologik asoslari qatorida S. L. Rubinshteyn va L. S. Vigotskiyning madaniy-tarixiy konsepsiyasi hamda defektologik nazariyalari alohida o'rin tutadi <sup>[4]</sup>.

L. S. Vigotskiyning birlamchi va ikkilamchi nuqsonlar haqidagi ta'limotiga tayanib, ko'plab olimlar ota-onalarda adekvat psixopedagogik pozitsiyani shakllantirish bolaning ikkilamchi ijtimoiy-ruhiy orqada qolishining oldini olishda hal qiluvchi omil ekanligini isbotlaganlar <sup>[5]</sup>.

Xalqaro tajriba va xorijiy tadqiqotlar tahlili (U. Bronfenbrennerning ekologik tizimlar nazariyasi) shuni ko'rsatadiki, nogironligi bo'lgan bolasi bor oilalarni qo'llab-quvvatlash mikrotizim (oilaga), mezotizim (ta'lim va tibbiyot muassasalari) hamda makrotizim (davlat ijtimoiy siyosati) darajasida integratsiyalashgan bo'lishi lozim <sup>[6]</sup>.

Zamonaviy tadqiqotlarda ota-onalardagi emotsional charchash (burnout) sindromini bartaraf etish, ularning resurs imkoniyatlarini faollashtirish hamda inkluziv savodxonligini oshirish masalalari yetakchi o'ringa chiqmoqda <sup>[7]</sup>.

O'zbekistonlik olimlar va amaliyotchi mutaxassislar (G. B. Shoumarov, M. G. Davletshin, F. U. Qodirova va boshqalar) tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda oiladagi psixologik iqlimni sog'lomlashtirish, milliy qadriyatlar va an'anaviy omillarni inobatga olgan holda ota-onalarga psixologik konsultativ xizmatlarni tashkil etish mexanizmlari yoritilgan <sup>[8]</sup>.

Shuningdek, so'nggi yillardagi manbalarda maxsus ehtiyojli bolalari bor oilalarga vaqtinchalik parvarish (Respite Care) xizmatlarini ko'rsatish hamda interaktiv va raqamli texnologiyalar vositasida masofaviy psixopedagogik ko'mak berishning samaradorligi ilmiy jihatdan asoslab berilmoqda <sup>[9, 10]</sup>.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotning metodologik asosini nogironligi bo'lgan bolasi bor oilalarga ijtimoiy-psixologik yordam ko'rsatish tizimini kompleks tahlil qilish tashkil etadi.

Tadqiqot obyekti ushbu oilalar hamda ularga ko'mak beruvchi ijtimoiy-psixologik muassasalardan iborat.

Tadqiqot konsepsiyasi U. Bronfenbrennerning ekologik tizimlar nazariyasi, L. S. Vigotskiyning defektologik nazariyasi hamda oilaga yo'naltirilgan yondashuv (Family-Centered Approach) konsepsiyasiga tayanadi. Imkoniyati cheklangan bolaning aka-uka yoki opa-singillari ham oilaviy vaziyat ta'sirini bevosita his etadilar. Ota-onaning e'tibori asosan nogironligi bo'lgan bolaga qaratilishi natijasida sog'lom farzandlarda e'tiborsizlik hissi yuzaga kelishi, ayrim hollarda ularga ortiqcha mas'uliyat yuklanishi, kamdan kam hollarda esa, aksincha,




chuqur empatiya va ijtimoiy mas'uliyat hissining rivojlanishi kuzatiladi. Shu sababli oilaviy psixologik yordam dasturlari nafaqat nogironligi bo'lgan bolaga, balki oilaning barcha a'zolariga, jumladan, sog'lom farzandlarga ham qaratilishi lozim.

Bunday bolalarni tarbiyalashda ota-onalar tomonidan qo'llaniladigan tarbiya uslubi bolaning psixologik rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Amaliyotda quyidagi nofunktsional tarbiya uslublari uchraydi:

- giperopeka (ortiqcha himoya) – bolaning mustaqilligini cheklovchi va uning imkoniyatlarini past baholovchi tarbiya uslubi;
- rad etish yoki emotsional sovuqlik – bolaning ehtiyojlariga e'tiborsizlik bilan bog'liq tarbiya uslubi;
- nomuvofiq (ziddiyatli) tarbiya – talablarning izchil emasligi natijasida bolada ishonchsizlikning shakllanishiga olib keluvchi tarbiya uslubi.

Bunga qarama-qarshi o'laroq, muvozanatli tarbiya uslubi – bolaning mustaqilligini rag'batlantiruvchi, ammo zarur hollarda uni qo'llab-quvvatlovchi yondashuv – bolaning kompensatsion imkoniyatlarini faollashtirish hamda o'zini o'zi qadrlashni shakllantirish uchun eng qulay sharoit yaratadi.



1-rasm: Nogironligi bo'lgan bolalarni tarbiyalashda oilaviy tarbiya uslublari

## TAHLIL VA NATIJALAR

Biopsixososial yondashuvning nazariy ildizlari tizimli tafakkur va ekologik paradigma bilan uzviy bog'liq. Ushbu model doirasida inson organizmi yopiq, izolyatsiyalangan tizim emas, balki ko'p darajali (biologik, psixologik, ijtimoiy) tizimlarning o'zaro ta'siri natijasida funktsionalanuvchi murakkab struktura sifatida talqin etiladi. Ushbu kontekstda L. S. Vigotskiyning madaniy-tarixiy nazariyasi, xususan, uning defekt tuzilishi haqidagi g'oyalari alohida ahamiyatga ega. Vigotskiy nogironlikni "birlamchi nuqson" va undan kelib chiquvchi "ikkilamchi og'ishlar" nuqtai nazaridan tahlil qilib, ikkilamchi og'ishlarning aynan ijtimoiy-madaniy sharoitlar ta'sirida shakllanishini, demak, ularning tuzatilishi ham ijtimoiy vositalar orqali amalga oshirilishi mumkinligini asoslab bergan. Mazkur g'oya biopsixososial modelning metodologik negizini tashkil etadi.

Shuningdek, U. Bronfenbrennning ekologik tizimlar nazariyasi bola rivojlanishini mikro-, mezo-, ekzo- va makrotizimlar darajasida tahlil qilish imkoniyatini beradi. Bu esa nogironligi bo'lgan bolaning ijtimoiy muhit bilan ko'p qatlamli o'zaro ta'sirini yaxlit tarzda konseptuallashtirishga xizmat qiladi. Nogironlikni biopsixososial yondashuv nuqtai nazaridan o'rganishda psixologik komponent alohida metodologik ahamiyat kasb etadi. Zero, aynan shu daraja biologik nuqson bilan ijtimoiy muhit o'rtasidagi "vositachi" pozitsiyasini egallaydi.

Biologik omillarning shaxs rivojlanishiga qanday ta'sir ko'rsatishi ko'p jihatdan bolaning psixologik resurslari – uning kognitiv salohiyati, emotsional barqarorligi, o'zini o'zi anglash darajasi va kompensatsion imkoniyatlari orqali namoyon bo'ladi. Shu sababli nogironligi bo'lgan bolalar psixologiyasini tadqiq etishda psixologik komponentning tarkibiy tuzilishi va uning dinamik xususiyatlarini alohida, mustaqil tahlil obyekti sifatida ko'rib chiqish zarurati yuzaga keladi.

Nogironligi bo'lgan bolalarda kognitiv jarayonlarning (idrok, diqqat, xotira, tafakkur, nutq) rivojlanishi bir tekis emas, balki notekis va o'ziga xos qonuniyatlar asosida kechadi. Bunda muhim jihat shundaki, kognitiv rivojlanishdagi og'ishlar ko'pincha bevosita birlamchi nuqson bilan emas, balki bolaning bilish faoliyatiga bo'lgan motivatsion munosabati, o'quv faoliyatidagi muvaffaqiyatsizlik tajribasi hamda atrofdagilarning past baholashga



asoslangan munosabati bilan bog'liq holda kuchayadi. Bu esa kognitiv rivojlanishni faqat neyropsixologik emas, balki psixologik-motivatsion nuqtai nazardan ham tahlil qilish zaruratini ko'rsatadi.

Emotsional-irodaviy soha nogironligi bo'lgan bolalar psixologik rivojlanishining eng nozik va zaif jihatlaridan biri hisoblanadi. Ushbu bolalarda ko'pincha quyidagi emotsional holatlar kuzatiladi: ortiqcha tashvishlanish va ishonchsizlik hissi; o'ziga bo'lgan ishonchning pasayishi; muvaffaqiyatsizlikdan qo'rqish natijasida faoliyatdan qochish tendensiyasi; ayrim hollarda himoya mexanizmi sifatida namoyon bo'luvchi agressivlik yoki, aksincha, ijtimoiy izolyatsiyaga moyillik. Irodaviy sifatlar, xususan, maqsadga yo'nalganlik va qiyinchiliklarga bardosh berish qobiliyati ko'p jihatdan bolaning atrofidagi kattalar tomonidan qanday qo'llab-quvvatlanishiga bog'liq bo'ladi. To'g'ri tashkil etilgan pedagogik-psixologik muhitda irodaviy sifatlar kompensatsion resurs sifatida faol rivojlanishi mumkin. Psixologik komponentning markaziy elementlaridan biri bolaning o'z nuqsonga nisbatan shakllantirgan subyektiv munosabatidir. Ushbu munosabat bola tomonidan tug'ma tarzda emas, balki ijtimoiy o'zaro ta'sir jarayonida, avvalo, oila va yaqin muhitning reaksiyalari asosida shakllanadi. Nuqsonga nisbatan adekvat munosabatning shakllanishi bolada barqaror va ijobiy o'zini o'zi qadrlash tizimini yuzaga keltiradi. Bu esa, o'z navbatida, ijtimoiy faollik va o'quv motivatsiyasi uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Aksincha, nuqsonga nisbatan salbiy yoki og'riqli munosabat past o'zini o'zi qadrlash, o'ziga ishonchsizlik va ijtimoiy izolyatsiyaga moyillikni keltirib chiqarishi mumkin.

Birlamchi va ikkilamchi nuqson nazariyasi. Modomiki, maxsus psixologiya haqida so'z yuritilar ekan, uning asosiy tushunchalaridan biri bo'lgan, L. S. Vigotskiy tomonidan asos solingan "Birlamchi va ikkilamchi nuqson nazariyasi"ni zikr qilish joiz. Birlamchi nuqson, qoida tariqasida, organik yoki biologik sabablarga ko'ra yuzaga keladi. Masalan, eshitish analizatorining shikastlanishi, ko'rish qobiliyatining pasayishi yoki markaziy asab tizimining organik zararlanishi shular jumlasidandir. Bunday nuqson bevosita biologik jarayonning natijasi bo'lib, tibbiy aralashuv doirasida qisman tuzatilishi mumkin. Biroq amaliyot shuni ko'rsatadiki, birlamchi nuqsonning o'zi bolaning butun psixik rivojlanishini belgilab bermaydi. Nuqsonning tuzilishi faqat shikastlangan biologik tizimlar bilan bevosita bog'liq bo'lgan alomatlar bilan cheklanmaydi. Balki oliy psixik funksiyalarning hamda xulq-atvorning ijtimoiy tomonining yetarli darajada rivojlanmaganligi asosiy nuqson bilan bevosita bog'liq bo'lmagan, ammo u tomonidan shartlangan ikkilamchi og'ishlar sifatida qaraladi.

Boshqacha aytganda, ikkilamchi og'ishlar bolaning muloqot doirasining torayishi, ijtimoiy tajribaning yetishmasligi va noto'g'ri tarbiyaviy muhit ta'sirida shakllanadi, ya'ni ular ijtimoiy-psixologik kelib chiqishga ega. Birlamchi nuqson odatda biologik omillar ta'sirida yuzaga keladi, ikkilamchi og'ish esa birlamchi nuqson ta'sirida paydo bo'ladigan buzilish hisoblanadi hamda psixik funksiyalarning rivojlanish jarayonida yuzaga keladigan o'zgarishlarni anglatadi. Ushbu qarash maxsus psixologiya va maxsus pedagogika uchun markaziy ahamiyatga ega bo'lgan funksiyalarni kompensatsiyalash muammosini yuzaga keltiradi. Muhimi shundaki, ikkilamchi og'ishlar birlamchi nuqsondan farqli o'laroq, to'g'ri tashkil etilgan korreksion-pedagogik ta'sir orqali oldini olish yoki yumshatish mumkin bo'lgan hodisa hisoblanadi. Zero, maxsus tarbiyaning umumiy tarbiya vazifalari bilan bog'liqligi, uning ijtimoiy vazifalarga bo'ysunishi va o'zaro bog'liqligi to'g'risidagi qoida aynan shu nuqtadan kelib chiqadi. Bu esa amaliy pedagogika uchun muhim xulosa beradi: mutaxassislarning asosiy e'tibori faqat birlamchi organik nuqsonni "tuzatish"ga emas, balki ikkilamchi og'ishlarning oldini olish va ularni kompensatsiya qilishga qaratilishi lozim.

## XULOSA

Xulosa qilib aytganda, L. S. Vigotskiy ta'kidlaganidek, nogironlikning psixologik oqibatlarini bevosita birlamchi (organik) nuqsondan emas, balki uning ijtimoiy sharoitlar bilan o'zaro ta'siridan kelib chiqadi. Aynan shu jarayonda psixologik komponent hal qiluvchi rol o'ynaydi. Agar bola o'z nuqsoni sababli tizimli tarzda muvaffaqiyatsizlikka duchor bo'lsa va bu holat salbiy baholash orqali mustahkamlansa, ikkilamchi psixologik og'ishlar (masalan, o'quv faoliyatiga nisbatan salbiy munosabat, ijtimoiy chekinish, o'ziga bo'lgan ishonchsizlik) shakllanadi. Bunday og'ishlar, aslida, birlamchi nuqsonning o'zidan ko'ra bolaning keyingi rivojlanishiga ko'proq salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Yuqorida ko'rib chiqilgan nuqson turlariga xos xususiyatlar shuni ko'rsatadiki, "nogironligi bo'lgan bola" degan umumlashtirilgan tushuncha ortida, aslida, bir-biridan sezilarli darajada farq qiluvchi psixologik holatlar mavjud. Shu sababli har qanday korreksion-pedagogik yoki psixologik dastur nuqsonning turi, chuqurligi, yuzaga kelish vaqti, shuningdek, bolaning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilishi zarur. Bundan tashqari, nogironligi bo'lgan bolani tarbiyalayotgan oilalarda yuzaga keluvchi psixologik-ijtimoiy muammolar ko'p qatlamli va murakkab xususiyatga ega bo'lib, ular nafaqat ota-onalarning, balki bolaning o'zining psixologik rivojlanishiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Oilani biopsixososial tizimning ajralmas qismi sifatida qarash hamda unga qaratilgan kompleks psixologik-ijtimoiy yordamni tashkil etish nogironligi bo'lgan bolalarning muvaffaqiyatli psixologik rivojlanishini ta'minlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.



**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Ткачева В. В. Технологии психологической помощи семьям детей с отклонениями в развитии: учеб. пособие. – М.: АСТ; Астрель, 2007. – 318 с.
2. Выготский Л. С. Собрание сочинений: в 6-ти т. Т. 5. Основы дефектологии / Под ред. Т. А. Власовой. – М.: Педагогика, 1983. – 368 с.
3. Bronfenbrenner U. The Ecology of Human Development: Experiments by Nature and Design. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1979. – 330 p.
4. Андреева Г. М. Социальная психология: учебник для высших учебных заведений. – М.: Аспект Пресс, 2017. – 363 с.
5. Мамайчук И. И. Психологическая помощь детям с проблемами в развитии. – СПб.: Речь, 2008. – 224 с.
6. Шоумаров Г. Б. Оила психологияси: олий ўқув юртлари талабалари учун ўқув қўлланма. – Тошкент: Шарқ, 2010. – 296 б.
7. Шипицына Л. М. Необучаемый ребенок в семье и обществе. Социализация детей с нарушениями интеллекта. – СПб.: Дидактика Плюс, 2005. – 477 с.
8. Қодирова Ф. У. Инклюзив таълимнинг назарий ва амалий асослари. – Тошкент: Фан ва технология, 2018. – 184 б.
9. Turnbull A., Turnbull R., Erwin E. J., Soodak L. C., Shogren K. A. Families, Professionals, and Exceptionality: Positive Outcomes Through Partnerships and Trust. 7th ed. – Boston: Pearson, 2015. – 432 p.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №8(1)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.